IBN HAZM ANDALUSIY “AL-FISOL” ASARIDA XRISTIANLIK OQIMLARI TARIXI

THE HISTORY OF CHRISTIAN SECTS IN BOOK OF SCHOLAR IBN HAZM ANDALUSI “AL-FISAL”

ИСТОРИЯ ХРИСТИАНСКИХ СЕКТ В КНИГЕ ИБН ХАЗМА АНДАЛУСИ «АЛ-ФИСАЛ»

Saidumarxon BURGUTXONOV
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN
Staff teacher of UNESCO chair
in the religious studies and the comparative
study of world religions
11, A.Kadiri, Tashkent, 100011, Uzbekistan
E-mail: saidumarkhon98@mail.uz

DOI: 10.47980/IIAU/2023/3/5

Annotatsiya: *Musulmon sharqida dinlarni o‘rganish an’analari boy tajribaga va o‘ziga xos uslubiyat hamda tamoyillariga ega bo‘lib, bu sohaning keyingi rivojiga, uning ko‘p tarmoqli yaxlit fanga aylanishiga mustahkam asos sifatida xizmat qilgan. XIX asr o‘rtalarida G‘arb dinshunosligi vujudga keldi va mustaqil fan sohasi sifatida e’tirof etildi. Natijada, ko‘pgina manba va adabiyotlarda dinshunoslik fani Yevropa mamlakatlarida paydo bo‘lgan, degan fikr ommalashib ketgan. Yevropada dinshunoslik XIX asrga kelibgina shakllana boshlagan bir paytda musulmon sharqi bu borada anchagina taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tib, boy tajribaga ega edi.*

Ushbu maqolada musulmon olimlarining Ibn Hazm Andalusiy ilmiy merosiga munosabati, xususan, uning qalamiga mansub “al-Fisol fil-milal val-ahva van-nihal” asarida xristianlikdagi firqalar tarixi va ta’limotlari yoritilgan. Shuningdek, xristianlik haqida ma’lumot beruvchi asarlar orasida bu asarning tutgan o‘rni tadqiq qilingan. Ibn Hazm Andalusiyning “al-Fisol fi-l-milal va-l-ahva va-n-nihal” asari Sharq qiyosiy dinshunosligiga oid ilk manbalardan biri hisoblanadi. Bu asar milal va nihal janrida yozilgan asarlar qatoriga kiradi. Asarda yakkaxudolik va ko‘pxudolik dinlari ta’limotlari, ulardagi firqalar, oqim va yo‘nalishlar haqida ma’lumotlar berilgan. Turli dinlardagi ta’limotlar o‘zaro qiyosiy tahlil qilinib, farqli va o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan. Muallif dinlar ta’limotlarini bayon qilishda tanqidiy tahlil va obyektiv munosabat bildirgan holda yondashgan. Shuningdek, asarda yahudiylik, xristianlik va islom dinlari ta’limotlari qiyoslanib, ushbu dinlar doirasida bo‘linish va firqalarning yuzaga kelish tarixi, har bir firqaning qarash va ta’limotlari, ular keltirgan dalillar tahlil etilgan.

Ibn Hazm Andalusiy xristianlik firqalarini funksional uzluksizligiga qarab tasniflaganligi, Xristianlik bilan o‘zaro munosabatda shakllangan firqalar haqidagi qarashlari, Ibn Hazm xristianlik firqalarining asoschilari, ularning tarixiy taraqqiyoti va qaysi hududlarda ta’sir ko‘rsatganligi haqida ma’lumot berish bilan birga, manbalarda uchramaydigan ba’zi firqalarning qarashlarini ham tushuntirgan.

Shuningdek, Ibn Hazm ushbu asarida Xristianlik Oriyoniylik(Arianizm), Bulyoniyya(Paulizm), Makedoniylik(Makedonius), Barbariylik(Barabarizm), Nasturiylik (Nestorianizm), Ya’qubiylik(Yakobizm), Marqyuniylik(Markanizm), Maruniylik(Maronizm) firqalari tarixi va e’tiqodlari haqida qimmatli ma’lumotlar bergan.

Kalit so‘zlar*: Ibn Hazm Andalusiy, “al-Fisol fil milal val-ahva van-nihal”, dinlar tarixi, Xristianlik, oqimlar, nestorianlik, ya’qubiylik, melkaniylik.*

Annotation: *It can be seen that the traditions of the study of religions in the Muslim East have a rich experience and their own methodology and principles, which served as a solid foundation for the further development of this field and its transformation into a multidisciplinary integrated science. The importance of this historical fact in the emergence of modern Western religious studies in the middle of the 19th century and its popularization as an independent field of science is often not recognized. As a result, in many sources and literature, the idea that the science of religious studies originated in European countries has become popular. While religious studies began to take shape in Europe only in the 19th century, the Muslim East went through many stages of development in this regard and had rich experience.*

In this article, the relationship of Muslim scholars to the Andalusian scientific heritage of Ibn Hazm, in particular, the coverage of the history and doctrines of sects in Christianity in the work “al-Fisol fil-milal wal-ahwa van-nihal” by his pen, the work is among the works that provide information about Christianity. Location information is provided. Ibn Hazm Andalusi’s work “al-Fisal fi-l-milal wa-l-ahwa wa-n-nihal” is one of the first sources of Eastern comparative theology. This work belongs to the works written in the genre of milal and nihal. The work contains information about the doctrines of monotheistic and polytheistic religions, their sects, currents and directions. The teachings of different religions are compared and analyzed, and their differences and unique aspects are studied. The author used a critical analysis and an objective attitude in explaining the teachings of religions. Also, the work compares the teachings of Judaism, Christianity and Islam, the history of division and the emergence of sects within these religions, the views and teachings of each sect, and the arguments they provide are described in detail.

Ibn Hazm’s classification of Andalusian Christian sects according to their functional continuity, his views on the sects formed in interaction with Christianity, the founders of Ibn Hazm’s Christian sects, their historical development and in which regions they had influence, as well as providing information that is not found in the sources He also explained the views of the factions.

Also, in this work, Ibn Hazm wrote the history of the Christian sects of Arianism, Bulyonism, Macedonianism, Barbarianism, Nestorianism, Jacobism, Marqyuniism, and

Maroniteism. and provided valuable information about their beliefs.

Key words: *Ibn Hazm Andalusi, "al-Fisal fil milal wal-ahwa van-nihal", history of religions, Christianity, currents, nestorianism, jacobism, melkanism.*

Аннотация: *Общеизвестно, что традиции изучения религий на мусульманском Востоке имеют богатый опыт и собственную методологию и принципы, которые послужили прочным фундаментом для дальнейшего развития этой области и превращения ее в многодисциплинарную интегрированную науку. Важность этого исторического факта в возникновении современного западного религиоведения в середине XIX века и его популяризации как самостоятельной области науки часто не признается. В результате во многих источниках и литературе стала популярной мысль о том, что религиоведение зародилось в европейских странах. Если религиоведение начало формироваться в Европе лишь в XIX веке, то мусульманский Восток уже прошел в этом отношении многие этапы развития и имел богатый опыт.*

В данной статье рассматривается отношение мусульманских учёных к андалузскому научному наследию Ибн Хазма, в частности освещение истории и учений сект в христианстве в его труде «Ал-Фисал фи-л-милял ва-л-ахва ва-н-нихал». Работа входит в число произведений, содержащих информацию о христианстве. Отмечается информация о местонахождении. Труд Ибн Хазма Андалуси «Ал-Фисал фи-л-милял ва-л-ахва ва-н-нихал» является одним из первых источников восточного сравнительного богословия. Данное произведение относится к произведениям, написанным в жанре «милал» и «нихал». Работа содержит сведения об учениях монотеистических и политеистических религий, их сектах, течениях и направлениях. Сопоставляются и анализируются учения разных религий, изучаются их различия и уникальные аспекты. Автор использовал критический анализ и объективный подход при объяснении учений религий. Также в работе сравниваются учения иудаизма, христианства и ислама, история разделения и возникновения сект внутри этих религий, взгляды и учения каждой секты, а также подробно изложены представленные ими аргументы.

В работе приводится классификация христианских сект Андалузии по их функциональной преемственности Ибн Хазма, его взгляды на секты, сформировавшиеся во взаимодействии с христианством, информация об основателях христианских сект Ибн Хазма, историческое развитие этих сект и в каких регионах они имели влияние, а также сведения, не встречающиеся в других источниках. Он также разъяснил точки зрения сект.

Также в этой работе Ибн Хазм написал историю христианских сект арианства, паулизма, македонизма, варварства, несторианства, якобизма, марконизма и маронизма и предоставил ценную информацию об их верованиях.

Ключевые слова: *Ибн Хазм Андалуси, «Ал-Фисал фи-л-милял ва-л-ахва ва-н-нихал», история религий, христианство, течения, несторианство, якобизм, мелканизм.*

KIRISH

Dinshunoslik gumanitar fanlar qatoridagi insoniyatning madaniy, ma'rifiy, fikriy tarixini o'z ichiga olgan ilmlar qatoriga kiradi. Dinshunoslik fanining yirik tarmog'i hisoblangan qiyosiy dinshunoslik sohasi ham nafaqat G'arbda, balki, o'rta asr musulmon Sharqida ham alohida o'rganilgan. Bu fanning ilk asoschilari ham aynan Sharq zaminidan yetishib chiqqan (Alidjanova L., 2020:81). Ular qatoriga Abu Rayhon Beruniy, Ibn Hazm Andalusiy, Abdulkarim Shahristoniy, Hishom ibn Kalbiy kabi bir qator olimlarni kiritish mumkin. Abu Rayhon Beruniy va Ibn Hazm Andalusiy islom renessansi davrida turli dinlar ta'limotlari, tarixi va urf-odatlarini qiyosiy tadqiq etib soha rivojiga ulkan hissa qo'shgan nodir asarlarni yaratgan. Ularning asarlari qiyosiy dinshunoslik va falsafa sohalarida muhim ahamiyatga ega (A.J.Arberry, 1997:14). Bu ikki qomusiy olimni dinshunos olimlar "Qiyosiy dinshunoslik fanining otlari", deya e'tirof etishgan (Joseph A.Kechichian, 2012:34). Ibn Hazm Abu Rayhon Beruniy bilan bir davrda yashab ijod etgan. Ular bir-birlari bilan uchrashmagan bo'lsada, ikki olim tomonidan dinlarni o'rganish bo'yicha olib borilgan izlanish va tadqiqotlar o'zaro hamohang. Ular yozib qoldirgan asarlar hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan va qiyosiy dinshunoslik sohasi tadqiqotchilari uchun asosiy manbalar bo'lib xizmat qilmoqda.

Ibn Hazm asli fors bo'lib, uning katta bobosi Yazid xalifa Yazid ibn Abu Sufyon(Muviya ibn Abu Sufyonning akasi, Xalifa Umar ibn Xattob (r.a.) davrida Suriya voliysi bo'lgan)ning xizmatkori bo'lgan (Ibn Hazm, 1978:14). U Kordovada Umaviylar xalifaligining tanazzulga uchrashi va mayda qirolliklarning etnik va urug'-aymoq kurashlari davrida o'sgan. Uning bolaligi xalifa Hishom II taxtdan ag'darilgach otasining vazirlikdan ketkazilishi va arab va barbarlar o'rtasidagi qonli janglarda Balat Mug'iradagi ota uyining vayron qilinishi kabi voqealar qurshovida o'tdi (Turambetov N., 2021:300). Ibn Hazm Umaviylar nomidan olib borgan siyosiy faoliyati natijasida qamoq, surgun va quvg'inlarga duch keldi. Lekin shunga qaramay, u Abdurrahmon III al-Murtazo va Abdurahmon V al-Mustazhir (1023 y.) davrida ikki marta va so'nggi xalifa Hishom al-Mu'tadd (1027 y.) davrida uch marta vazir lavozimiga tayinlangan (Али-заде А.А., 2007:87). Siyosiy o'yinlar va mansabdorlarning hiyla-nayranglaridan charchagan Ibn Hazm umrining so'nggi o'ttiz yilini adabiyotga bag'ishlagan (Abdupattayev M., 2023:46).

Ibn Hazmni o‘rgangan ulamolardan Ahmad ibn Nosir Hamad bu borada shunday deydi: “Biz ko‘rib chiqayotgan bu asarga aniqlik kiritgan narsa, mavzulariga ko‘ra unga tegishli risolalarning ahamiyatidir. Chunki bu asar Ibn Hazmning ilohiyotga oid ko‘pgina qarashlarini o‘z ichiga oladi. Uning “Kitobul-fisol” deb nomlanishi unda turli risolalar yig‘ilganligidan dalolatdir. Bularning barchasi birgalikda olti jildlik kitobni tashkil etadi.” (Ahmad ibn Nosir Al-Hamad, 2008:86).

“Al-Fisol” asarining aniq yozilgan sanasi ma’lum emas. Chunki, Ibn Hazm asarni yozishni boshlash va tugatish sanasini aniq ko‘rsatmagan. Aniq sanani bilish qiyin bo‘lsa-da, Ibn Hazmning boshqa asarlarida keltirilgan ba’zi voqealar asar yozilishining taxminiy sanalarini ko‘rsatadi. Ibn Hazmning “Al-Ihkam” asaridagi ishoraga ko‘ra, Ibn Hazm “al-Fisol”ni “at-Targ‘ib” asaridan oldin va “al-Ihkam” asaridan keyin yozgani ma’lum. Ammo u “al-Fisol”ning uchinchi va keyingi boblarida Ibn Hazm “al-Ihkam”ga ishora qiladi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, Ibn Hazm “al-Fisol”ning dastlabki ikki qismini “al-Ihkam”ni boshlashdan oldin yozgan. “Al-Fisol”ning uchinchi va keyingi qismlarini “al-Ihkam” bilan bir vaqtda yozgan bo‘lishi mumkin (Ibn Hazm, 1996:106).

Umumiy fikrga ko‘ra, Ibn Hazm bu asarini 1027 va 1030-yillar oralig‘ida yozgan. Bu sanalar Andalusiyada Hishom al-Mu’tad Billahning xalifalik davriga to‘g‘ri keladi. Ibn Hazmning o‘zi bu sanani asarida aytib o‘tgan (Ibn Hazm, 1996:28). Shuningdek, kitobda yozilgan sana haqida boshqa qarashlar mavjud. U boshqa bir joyda Imom Muhammad Mahdiyning g‘oyib bo‘lishi bundan 171 yil oldin bo‘lganiga ishora qiladi. Ushbu tushuntirishlar asarning yozilish sanasini 1038-yil ekanligini ko‘rsatadi (Abdulhalim U., 1988:97).

Ibn Hazm “al-Fisol” asarida xristianlik dinini ikki joyda tilga oladi. Birinchisi, “al-Fisol”ning birinchi jildidagi Allohga sherik keltiruvchilar haqidagi bobda “Uchlik ta’limoti”ni rad etish mazmunida keltiradi. Ikkinchisi “al-Fisol”ning birinchi jildida xristianlarning vahiy va Muqaddas Kitob haqidagi tushunchalari haqida to‘xtalib o‘tgan matnda uchraydi. Ibn Hazm Yangi Ahd to‘plamini tashkil etuvchi Injillar alohida sarlavha ostida, Havoriylar maktublari esa, alohida nom ostida ko‘rib chiqib, Yangi Ahdning barcha kitoblari o‘zgartirilganligini isbotlashga harakat qiladi (Ibn Hazm, 1996:64-65). Bundan tashqari, Ibn Hazmning xristianlar haqida ma’lumot bergan boshqa asarlari ham bor. Ibn Hazm dinlar, mazhablar va muqaddas kitoblarni o‘rganishda ezoterik usulni qo‘llagan (Burgutkhonov S., 2022:705).

Yuqoridagi masalalarni chuqur tahlil etgan holda ommalashtirish va bu bilan Sharq dinshunoslik maktabining haqli merosxo‘ri bo‘lgan O‘zbekistonning o‘ziga xos dinshunoslik maktabini shakllantirish mazkur soha mutaxassislari va tadqiqotchilar oldida turgan dolzarb vazifalardandir. Maqolada o‘rganilgan “al-Fisol fi-l-milal va-l-ahva va-n-nihal” asari muallifi Ibn Hazm Andalusiy ham ilk bor dinlarni qiyosiy o‘rgangan musulmon olimlaridan hisoblanadi. Ushbu asarni o‘rganish, uning ustida tadqiqot olib borish hozirgi davr zamonaviy dinshunoslik faninining dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

USLUBLAR

Ibn Hazm Andalusiy “ilohiy dinlar”ga nisbatan “milal” (الملل), “dunyoda Iloh yo‘q deguvchilar”, “dunyoni muqaddas deb tan oluvchilar” hamda “payg‘ambarlikni inkor qiluvchilar” uchun “ahvo” (الأهواء), toifa va oqimlarga, jumladan, islomdagi mazhablarga “nihal” (النحل) so‘zi bilan murojaat qilib toifalarga ajratish usuli musulmon qiyosiy dinshunosligida dinlarni tasniflashdagi o‘ziga xos yondashuv bo‘lgan (Burgutxonov S., 2022:44).

Ibn Hazm Andalusiy “al-Fisol fi-l-milal va-l-ahva va-n-nihal” asarida islom ta’limotlari qarashlariga to‘g‘ri kelmaydigan toifalarni: mavjudotlarning obyektiv haqiqatini inkor etuvchi sofistlar (السوفسطائية); dunyo abadiydir, shuning uchun ham yaratuvchisi va hukmdori yo‘q, deb da’vo qiluvchi dahriylar (moddiyunchilar) (القائلون بأن العالم لم يزل وأنه لا مدبر له); dunyoni ham azaliy, ham abadiy boshqaruvchisi borligini qabul qiluvchi faylasuflar (القائلون بأن العالم لم يزل وأن له فاعلاً لم يزل); dunyoni yaratilgan deb hisoblovchi, lekin bittadan ortiq abadiy iloh borligini da’vo qiluvchilar (القائلون بأن الفاعل أكثر من واحد) - (ma’jusiylik, sobi’iylik, moniylik, mazdakiylik, xristianlik kabi e’tiqodlar); dunyo yaratilgan, abadiy yaratuvchi bor, lekin nubuvvatni inkor etuvchilar (الفرقة القائلة بتعدد فاعل العالم ومدبره) - (brahmanlar); obyektiv voqelikka, dunyoning yaratilishiga, yagona va abadiy yaratuvchi va payg‘ambarlik borligiga e’tiqod qiluvchi, lekin ba’zi payg‘ambarlarni qabul qilib, ba’zilarini inkor qiluvchilar (القائلون بأن العالم حدوث وأن لو خالق واحد لا يزال) (yahudiylar va sehrgarlar) kabi olti guruhga ajratish orqali ta’limotlar va oqimlarni tizimlashtirishda e’tiqodiy tasnifni ishlab chiqqan.

NATIJALAR

Manbalarda hofizlik, muhaddislik va fiqhul-hadis olimi kabi fazilatlari bilan tilga olingan Ibn Hazm aqliy qobiliyatlari jihatidan juda mashhur olim sifatida tanishtiriladi. Shuningdek, uning barcha islomiy ilmlarni chuqur egallagani, adabiyot va she’riyatdan mohirligi, til, siyar va tarixdan keng bilimga ega ekanligi, bu sohalarning barchasida asarlar yozgani aytiladi

(Burgutxonov S., 2022:254). Ayniqsa, u ko‘p tillarni, jumladan lotin tilini ham bilganligi ta’kidlanadi. Ayni paytda hadis, fiqh, nasl-nasab, adabiyotga oid fanlar va qadimiy ta’limotlarga asoslangan mantiq va falsafa kabi fanlar olimning chuqur o‘rgangan sohalari qatoriga kiradi (Burgutxonov S., 2021:234).

Imom Zahabiy (vaf. 748/1056) deydiki, “Ibn Arabiy Ibn Hazmni tanqid qilishda haddan oshib ketgan. Negaki, Ibn Hazmning ilmiy salohiyati Ibn Arabiynikidan bir necha barobar yuqori edi. Shuningdek, u Ibn al-Arabiy Ibn Hazmni tanqid qilsa-da, undan hadislar rivoyat qilgan”ligini aytadi. Yana Zahabiy Ibn Hazmni hadisga bo‘lgan muhabbati tufayli yaxshi ko‘rganini, uni kufr va bid’atda ayblamaganini, balki u uchun istig‘for va mag‘firat so‘raganini qayd etadi (Zahabiy, 1996:186-200).

Ibn Hazm haqidagi tadqiqotlarda uning ko‘plab ilmlarni egallaganligi, hattoki, mutlaq mujtahid bo‘lganligi ta’kidlangan. Ibn Hazm haqida ko‘plab mashhur olimlar o‘z fikrlarini bildirishgan. Jumladan, Abu Homid G‘azzoliy aytadi: “Abu Muhammad Ibn Hazm Andalusiyning Alloh taoloning ismlari haqida yozilgan asarini topdim. Bu asar uning kuchli xotira va o‘tkir zehnli ekanligidan dalolat beradi.” (Ibn Hazm, 1996:6)

Humaydiy ham Ibn Hazm haqida shunday deydi: “Ibn Hazm hadis va fiqhul-hadis hofizi, kitob va sunnatdan hukm chiqarishga qodir, ko‘p ilmlar bo‘yicha mutaxassis, olim edi. Men u kabi aqlli, xotirasi kuchli, or-nomusli va o‘zini tuta oladigan, taqvodor odamni ko‘rmaganman.” (Burgutxonov S., 2021:211)

Ibn Hazmning shogirdi Said Jayyoniyning yozishicha, Ibn Hazm 994-yil (hijriy 384-y.) Ramazon oyining oxirgi chorshanbasida quyosh chiqmasdan oldin dunyoga kelgan. U umrining so‘nggi kunlarini Manta Lishamda e’tikofda o‘tkazdi. U qariyb yetmish ikki yil yashadi (Burgutxonov S., 2022:546). Ibn Hazmning o‘g‘li Abu Rofi’ Fadl otasining vafoti 15-avgust, 1064-yil (hijriy 28-shabon, 456-y.) ekanligini ta’kidlaydi. Zahabiyning aytishicha, Ibn Hazm xotirani kuchaytiruvchi luban deb nomlangan o‘simlikni yeb, moxov kasalligiga chalingan va vafot etgan (Ibn Xallikon, 2011:327).

Ibn Hazm islom olamida ko‘plab asarlar yozgan olimlar qatoriga kiradi. U Ibn Jarir Tabariydan (vaf. 310/922) keyin eng ko‘p asar yozgan musulmon olimi sifatida tanilgan. Olim 10 dan ziyod ilm-fan sohasida kitoblar ta’lif etgan. Uning o‘g‘li Abu Rofi’ Fadlning aytishicha, otasi fiqh, hadis, uslub, tarix, adabiyot va raddiyaga oid to‘rt yuzta asar yozgan. Bu taxminan sakson ming sahifaga to‘g‘ri keladi (Zahabiy, 1996:306). Bu asarlardan bir yuz ellikka yaqinining nomi manbalarda keltirilgan.

MUHOKAMA

Ibn Hazm xristianlikning paydo bo‘lishi, urf-odatlari va tarqalishi haqida o‘z davridagi xristianlikning o‘tmishini ham, holatini ham hisobga olgan holda ma’lumot beradi. Ibn Hazmning fikricha, ming yildan ortiq tarixga ega bo‘lgan xristianlik Iso Masih olib kelgan dindan kelib chiqqan din emas. Xuddi shunday, Isoga nisbat berilgan “Muqaddas kitob” u olib kelgan matn emas. Ibn Hazm Xristianlar muqaddas deb bilgan Injil va boshqa kitoblar ham bir-biriga zid ma’lumotlarga to‘la ekanligini ta’kidlaganidan so‘ng, umumiy xristianlik haqida quyidagi baholarni beradi:

“Dinlarining o‘zgarganligiga kelsak, har bir aqli bor odam buni osonlik bilan tushunishi mumkin. Xristianlarning Injillari va boshqa (muqaddas) kitoblari Alloh yoki Masihdan emasligini isbotlash uchun dalillar keltirishimiz shart emas. Biroq, bu bizga Tavrot va yahudiy payg‘ambarlariga tegishli kitoblar uchun kerak edi. Chunki, yahudiylarning ko‘pchiligi qo‘llarida Tavrot bor. U Musoga vahiy qilingan, deb da’vo qilinadi. Shu bois, ularning bu boradagi iddaolarini inkor etish uchun dalillar keltirish zarurligini his qildik. Masihiylar esa, bizni bu da’volardan qutqardi. Chunki ular na “Xushxabar” Xudodan Masihga tushirilgan, na Masih ularni olib kelgan deb da’vo qilishmaydi. Aksincha, ularning oldingi va keyingilari, Oriyoniylar, Melkaniylar, Nasturiylar, Ya’qubiylar, Maruniylar, Bulyaniylar bilan birga, bu Injillar to‘rtta taniqli shaxs tomonidan turli vaqtlarda yozilganiga ittifoq qilishgan.” (Ibn Hazm, 1996:251).

Ibn Hazmning bu fikridan quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

Bir tomondan, xristianlik vahiyga asoslangan din sifatida uning o‘ziga xosligi yo‘q. Chunki, xristianlarning Injillari ham, boshqa muqaddas matnlari ham Xudo tomonidan nozil qilinmagan. Boshqa tomondan, bu matnlarning Iso Masih bilan bevosita aloqasi yo‘q. Ibn Hazm xristianlarning o‘zlari bu masalada to‘liq bir fikrda emasliklarini aytadi;

boshqa tomondan, biz keltirgan matnda Ibn Hazm Injillarning vahiy sifati yo‘qligini, aksincha, ular ba’zi mualliflar tomonidan yozilgan tarixiy ma’lumotlardan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Bunga dalil sifatida shuni ko‘rsatadiki, hamma xristianlar ham bu masalada har xil fikrda emas (Селезнев Н., 311-313). Yana shuni aytish kerakki, Ibn Hazm Havoriylar maktublariga ishora qilib, Iso Masihga iymon keltirgan oz sonli kishilar va Iso osmonga ko‘tarilganidan keyin barcha xristianlar, ayniqsa havoriylar ma’lum muddat zulm ostida yashaganliklarini aytadi (Ibn Hazm, 1996:253).

Ibn Hazm uch yuz yillik uzoq muddat davomida Iso Masih olib kelgan dindan chiqib ketish sabablari

orasida o‘z e’tiqodlarini yashirganliklarini keltirib o‘tadi. Shu o‘rinda Ibn Hazm xristianlarga ishora qilib, Iso alayhissalom hayotligi davridagi xristianlar bir yuz yigirma erkak va bir guruh ayollardan iborat bo‘lganligini ta’kidlaydi va buni salbiy deb baholaydi (Abu Zahro, 1978:59).

Boshqa tomondan, bu salbiy fikrga qo‘shimcha qilib, Iso vafot etganidan keyin uch yuz yil davomida xristianlik tom ma’noda ta’qib qilingan. Shu darajadaki, bu dinga e’tiqod qilganlar o‘z e’tiqodlarini yashirishga majbur bo‘ldilar va hech bir xristian odamlarni bu dinga ochiqdan-ochiq taklif qila olmadi. Chunki, o‘sha vaqtda diniy kimligi oshkor bo‘lgan odam tosh yoki qilich bilan o‘ldirilgan, osilgan yoki zaharlangan.

Bulardan tashqari, Ibn Hazm uch yuz yil davomida xristianlarga panoh topish uchun xavfsiz joy bo‘lmaganligini ta’kidlaydi. Ibn Hazmning fikricha, bu davrdagi siyosiy voqealar natijasida Alloh tomonidan nozil qilingan haqiqiy Injil (uning juda kichik bir qismi bundan mustasno) yo‘q bo‘lib ketgan (Ibn Hazm, 1996:254). Ibn Hazm Iso Masih olib kelgan dindan mustaqil bo‘lgan yoki tarixiy jarayonda qayta shakllangan xristianlikning ochiq yashay boshlagan davri imperator Konstantin davri ekanligini ta’kidlaydi. Boshqacha aytganda, Ibn Hazm imperator Konstantinning xristianlikni qabul qilishi bilan xristianlik yashirin dinga emas, ochiq dinga aylanganini ta’kidlaydi.

Konstantinning xristianlikni qabul qilishiga kelsak, deb yozadi Ibn Hazm, Konstantinning otasi Iso Masih olib kelgan dinni yashirincha tutgan xristian qizi Yelenaga uylanadi. Konstantinning onasi Yelena nafaqat yashirin xristian sifatida yashashni davom ettiradi, balki o‘z farzandini xristian an’analariga muvofiq tarbiyalaydi (Ibn Hazm, 1996:254,327,339–341). Shunday qilib, 313-yilda imperator bo‘lgan Konstantin onasining ta’siri bilan “Milan farmoni”ni e’lon qiladi. Unga ko‘ra, xristianlik rasman qonuniy din sifatida e’tirof etildi va xristianlik tez orada imperiya diniga aylandi.

Ibn Hazm imperiya diniga aylangan xristianlikning tarixiy rivojlanish jarayoni haqida ham ma’lumot beradi. Shunga ko‘ra, birinchi xristian imperatori Konstantin va uning o‘g‘li vafotidan keyingi davrda xristian dini imperiyadan olib tashlandi va butparastlikka aylandi (Alimova M., 2020:109). Keyingi davrlarda Konstantinning qarindoshlaridan biri bo‘lgan imperator hokimiyatni qo‘lga kiritgach, u xristianlikni qabul qilgan (Ibn Hazm, 1996:341). Boshqa tomondan, Ibn Hazm hokimiyatni qo‘lga olgan xristianlar uch yuz yil davomida ularga nisbatan qo‘llanilgan ta‘qib va zulmni xristian bo‘lmaganlarga nisbatan qo‘llaganliklarini ham ta’kidlaydi (Ibn Hazm, 1996:340).

Ibn Hazm xristianlikning ijtimoiy, siyosiy va diniy tarixi haqida ma’lumot berib, ba’zi umumiy xulosalarga keladi. Uning fikricha, xristianlik boshidan kechirgan tarixiy jarayon “uzluksiz uzatilish”ni deyarli imkonsiz qilib qo‘ygan. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, xristianlar tarixi xristianlikni asl ko‘rinishida saqlab qolishga imkon beradigan elementlarsiz rivojlangan. Mavjudligini faqat yashirincha saqlagan bu din a’zolari tabiiyki, o‘z dinini himoya qilishga, uning aslligini saqlab qolishga qodir emas edi. Xristianlikning uzoq vaqt yashirin yashashiga to‘g‘ri kelishi, uning asl shaklini saqlab qolish mexanizmlarining yo‘qligi uni yot unsurlar ta’siriga tushuvchi nihoyatda ochiq tuzilmaga aylantirdi. Shu nuqtai nazardan, ayniqsa, manixeylik (al-mannaniyya) xristianlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatdi (Ibn Hazm, 1996:254).

Ibn Hazmning fikricha, xristianlikning Iso Masih keltirgan diniy an’anadan uzoqlashishi yoki uni o‘zgartirishiga yana bir sabab, xristian ruhoniylari o‘tkazgan diniy yig‘ilishlardir. Xristian ruhoniylari tomonidan o‘tkaziladigan bu yig‘ilishlarning “Sobor” deb atalishini ta’kidlagan Ibn Hazm bu diniy yig‘ilishlar haqida umumiy ma’lumot beradi. Ibn Hazm xristianlikdagi kengashlar diniy masalalarda hukmron hokimiyat ekanligini alohida ta’kidlaydi (Eliade M., 2003:417-418). Biroq olimning fikricha, aytilgan kengashlarda qabul qilingan qarorlar va hukmlar dinning mohiyatiga muvofiq qaror va hukmlar emas. Ibn Hazm Iso Masih olib kelgan dindan uzoqlashish va bu dinni aslligidan qaytarishning asosiy sabablaridan biri sifatida xristian ruhoniylari qo‘lidagi kengashlarni ko‘radi.

Har bir dinda bo‘lgani kabi, xristianlikda ham fikr, talqin yoki amaldagi tafovutlar tufayli turli yo‘nalish va firqalar paydo bo‘lgan. Abu Muhammad Ibn Hazm o‘zining dinlar tarixiga oid asarlarida xristian firqalarining asoschilari, ularning tarqalish jarayonlari va qaysi hududlarda ta’sir ko‘rsatganligi haqida ma’lumot beradi. Ushbu ma’lumotlarning ba’zilari Xristianlik sarlavhasi ostida, ba’zilarini umumiy yoki aqida masalalari sarlavhasi ostida bergan. U nafaqat xristianlar orasida umume’tirof etilgan yo‘nalishlar, balki “bid’atchi/rofiz” deb ta’riflangan oqim va guruhlar haqida ham ma’lumot beradi. Shu jihatdan Ibn Hazm xristian mazhablarini aqida tasnifiga ko‘ra toifalagan (Ibn Hazm, 1996:64).

Muallif xristian firqalarini funksional uzluksizligiga qarab tasniflagani ko‘rish mumkin. Ibn Hazmning yozishicha, Isaviyya firqaining asoschisi Abu Iso al-Isbihoniydir. Muallif uni Isbihonlik yahudiy ekanligini tushuntiradi. Boshqa bir bayonotda, unga yetib kelgan ma’lumotlarga ko‘ra, uning ismi Muhammad ibn Isoga ishora qiladi. Quyida Ibn Hazm “Al-Fisol” asarida keltirib o‘tgan xristian firqalari keltirib o‘tiladi.

Oriyoniylik (Arianizm). Ibn Hazm xristian firqalari haqidagi tushuntirishlarini oriyoniylikdan boshlaydi. Zamonaviy ilmiy usulda bo‘lgani kabi,

firqa asoschisi Arius hayoti haqida qisqacha ma'lumot bergandan so'ng, u o'z fikrini izohlashga kirishadi. Ibn Hazmning yozishicha, Oriyoniylikning asoschisi Arius (250-336) Iskandariyalik ruhoniy va firqaning asosiy siymosi bo'lgan (Ibn Hazm, 1996:64). Lekin bundan boshqa hayoti haqida hech qanday ma'lumot bermaydi. Uning fikrlari, faoliyati va ta'siri bilan shug'ullanishni birinchi o'ringa qo'yadi. Ibn Hazmning fikriga ko'ra, Oriyoniylik xristianlik firqasi bo'lib, "Mutlaq tavhid" ta'limotini yoqlaydi. Oriyoniylik ko'proq Xristologiya o'qiga e'tibor qaratadi. Ibn Hazm buni quyidagicha ifodalaydi:

"Xristianlik mazhablaridan biri Oriyoniylikdir. Arius Iskandariya yepiskopi edi. U birlikka mavhum (mazmunsiz) e'tiqodga ega bo'lib, Iso alayhissalomni Alloh tomonidan yaratilgan banda va u orqali osmonlar va yerni yaratgan kalom ekanini da'vo qilgan. Arius Konstantinopol asoschisi va xristian dinini qabul qilgan birinchi Vizantiya imperatori Konstantin hukmronligi davrida yashagan. U (imperator) Arius firqasiga mansub edi. Oriyoniylik mazhabiga ko'ra, Iso yaratilgan banda va Xudoning kalomidir."(Ibn Hazm, 1996:64).

Uning "Yakkaxudolik" deb baholanishi Qur'onning tegishli oyatlari bilan o'rnatgan aloqasiga asoslanadi. Yuqorida Ibn Hazmning Oriyoniylikga ishora qilib keltirgan parchasidagi qarashlar Qur'onning Iso Masih haqidagi bayonotlariga to'g'ri keladi.

Ibn Hazm Oriyoniylikning tarix sahnasiga chiqishi haqida ma'lumot berish o'rniga firqaning shakllangan asrini belgilaydi. Har holda, firqaning vujudga kelgan vaqtini uning asoschisining hayotiy hikoyasidan bilib olish mumkin. Ibn Hazm bu firqa Konstantinoplga asos solgan va birinchi bo'lib Rim podshohlaridan xristianlikni qabul qilgan Konstantin I davrida paydo bo'lganligini ta'kidlaydi. Ibn Hazm oriyoniylik firqasining tarqalish sohasi va unga ergashuvchilar soni haqida ma'lumot bermasa-da, uning murojaatlari va baholari doirasida mazhab tarqalgan hududlar va uning ommaviy muhiti haqida fikr yuritish mumkin. Misol uchun, u Konstantin I Oriyoniylik firqasining a'zosi ekanligini ta'kidlaydi. Binobarin, u Rimda keng tarqalgan deb taxmin qilish mumkin, chunki arianlar firqasi 40-yil Konstantin hukmronligi davrida qirolgacha yetib borgan.

Bulyoniyya (Paulizm). Xristianlikdagi ko'p sonli firqalaridan biri bulyaniyyadir. Ibn Hazmning "Xristianlardan bulyaniya" degan ifodasidan chiqib, shu nomdagi xristianlik mazhabi bor, deyish mumkin. Biroq, Ibn Hazm Bulyaniyya deb ifodalagan pavluslik Bulkaniyya sifatida ko'chirilgan (Ibn Hazm, 1996:264). Boshqa ba'zi islom adabiyotlarida bu firqaning nomi "Bulyaniyya" deb yuritiladi. Ibn Hazm mazhab asoschisi Pavlus Shamshatiy (Samosatilik Pavlus - (III asr) - 260-yillarda Antioxiya yepiskopi; uning Iso Masihning ilohiy tabiatini inkor etuvchi ta'limoti Antioxiya kengashida bid'at deb qoralangan) ekanligini ta'kidlagan. Firqa nomi tegishli islom adabiyotida "Bulkaniyya" emas, "Bulyaniyya" nomi bilan kiritilgan. Bulyaniyya so'zi Pavlus so'zining arabcha ko'rinishi. Demak, Ibn Hazm mazhab nomini "Bulkoniyya" deb ataganini qabul qilish o'rniga, uni nusxa ko'chirish xatosi sifatida ko'rish haqiqatga yaqinroq ko'rinadi. Ibn Hazm Bulyaniy firqaining asoschisi Pavlus Shamshatiy xristianlik paydo bo'lgunga qadar Antakyada patriarx bo'lganligini ta'kidlaydi. Bizningcha, u "xristianlik paydo bo'lgunga qadar Antakyada patriarx bo'lgan" iborasini xristianlikning Rimda rasman qabul qilinishidan oldingidek tushunish kerak.

Ibn Hazmning Bulyoniya mazhabiga bergan izohi quyidagicha: "Samsatlik Pavlus Antioxiya patriarxi edi. U to'g'ridan-to'g'ri Allohning yagona Xudo ekanligini, Iso boshqa payg'ambarlar kabi Allohning quli va rasuli ekanligini ta'kidlagan. Unga ko'ra, Xudo Isoni Maryamning qornida erkak bilan aloqasi bo'lmagan holda yaratgan. Iso inson bo'lgan va unda hech qachon ilohiylik bo'lmagan.

Shahristoniy ham "al-Milal van-Nihal" asarida Ibn Hazm bilan bir xil fikrda. Shamshatiy firqasi Pol ash-Shamshatiyga ergashuvchilardir. Pol ko-Shimsatiy 260-yillar atrofida Antioxiya episkopi bo'lgan. U Masihning ilohiyligini inkor etdi va uning inson ekanligini ta'kidladi (Shahristoniy, 2001:225). Keyinchalik bu firqa Bulyoniyya firqasi nomi bilan tanilgan. Keyingi islom mutafakkirlari matnlariga kiritilgan Pol ash-Shamshatiy Ibn Hazm tilga olganidek joriy etilgan.

Makedoniylik (Makedonius). Ibn Hazm xristian firqalari orasida Makedoniylik degan oqim mavjudligini ochiq aytdi (Ibn Hazm, 1996:64). Yuqorida aytib o'tilganidek, xristian firqalar odatda o'z nomini asoschisidan olgan. Makedoniylik harakati o'z nomini asoschisi yoki g'oyalar manbai makedon tilidan oldi. Ibn Hazm bu nomni Konstantin I ning o'g'li Konstantin II davrida Konstantinopol Patriarxi bo'lgan Makedoniya Patriarxining fikrlari atrofida shakllangan firqa asoschisiga nisbatan beradi. Imperatorning otasi Konstantin I va o'g'li Konstantin II ham makedoniylik firqasini emas, balki oriyoniylik firqasini qabul qilgan. Yana, Ibn Hazm bu firqaning asosiy g'oyasini "Mutlaq tavhid" deb ifodalagan. Boshqa payg'ambarlarb kabi ular ham Isoni Allohning yaratilgan bandasi va payg'ambari deb biladi. Shubhasiz, Iso Muqaddas Ruh va Xudoning kalomidir. Muqaddas Ruh ham, kalom ham yaratilgan (Ibn Hazm, 1996:133). Ibn Hazm bergan ma'lumotlardan biri, Makedoniylik mazhabi a'zolari, xuddi Bulyaniylar kabi, "Xushxabar" rag'batini

kutishgan (Abdupattayev M., 2022: 41). Shahristoniy asarida ham makedonlik firqasi diniy qarashlari haqida fikr bildirgan (Shahristoniy, 2001:227).

Barbariylik (Barabarizm). Xristianlik firqalaridan Ibn Hazm turli qarashlar va milliy xususiyatga ega barbar firqasini ham tilga oladi (Ibn Hazm, 1996:56). Barbar nomi qadimgi yunon manbalarida "barbaroi", lotin manbalarida esa, "barbari" (varvar) sifatida tilga olinadi. Ular yunon va lotin dunyosidan tashqarida bo‘lganligi uchun bu yerda yashovchi odamlar ham shu nom bilan ataladi. Bu firqani boshqa firqalardan ajratib turadigan asosiy farqi Iso va uning onasi Maryamni Xudo sifatida qabul qiladi.

Nasturiylik (Nestorianizm). Ibn Hazmning fikricha, nasturiylik mazhabi o‘z asoschisi nomi bilan atalgan xristianlik firqasidir. Boshqacha aytganda, ular Konstantin Patriarx Nasturga ergashganlardan iborat edi. Ibn Hazmning ta’kidlashicha, nasturiylar ham xuddi melkoniylar kabi "Uchlik e’tiqodi"ni qabul qilgan (Ibn Hazm, 1996:134). Bu jihatdan nasturiylar o‘z e’tiqodlari bo‘yicha Melkanidlar fikriga qo‘shiladilar. Biroq, tafsilot sifatida, Nasturiylarga ko‘ra, Maryam Xudoni emas, balki faqat odamni tuqqan. Boshqa tomondan, Xudo insonni dunyoga keltirmagan. Ibn Hazm nasturiylik xristologiyasini melkit ta’limoti bilan parallel ravishda to‘g‘ri ko‘rganligi sababli u melkit ta’limotini rad etish bilangina qanoatlanib, nasturiylik dinining tarixiy taraqqiyotiga mos ravishda muhim xususiyatlarini to‘g‘ri bayon qilgan.

Qolaversa, Ibn Hazm nasturiylik firqasining tarqalishini umumiy tarzda tasvirlab bergan. U bu firqaning Iroqda, xususan, Mosul shahrida keng tarqalganligini ta’kidlagan holda, qisman forslar va Xuroson atrofida tarqalganligini ham ta’kidlagan.

Ya’qubiylik (Yakobizm). Ibn Hazmning fikricha, bu firqa o‘z nomini asoschisining ismidan olgan. Muallif Ya’qubiylarni Konstantinopollik ruhoniy Ya’qub al-Bardoniyga (501–579) tegishli deb tavsiflaydi (Ibn Hazm, 1996:66). Ibn Hazm al-Bardoniyni tilga olish orqali bu firqa asoschisi Ya’qubni Yakob ismli boshqa xristian yetakchilaridan ajratib olishni maqsad qilgan. Ibn Hazmning fikricha, Ya’qubiy firqasi Masihni Xudoning o‘zi deb biladi.

Marqyuniylik (Markanizm). Ibn Hazm bu mazhabni xristian mazhablari orasida ko‘rsatmagan, lekin uni xristianlar o‘z davrida marqyuniylik bid’atchi firqa deb ataganliklarini ta’kidlagan (Ibn Hazm, 1996:134). Muallif bu firqa haqida yetarli ma’lumot bermagan bo‘lsa-da, firqa aqidasiga ishora qiladi. Ibn Hazmning fikricha, Daysoniyya, Marqyuniyya va Manoniyya to‘rtta sodda tabiat abadiydir, o‘ziga xos, deb e’tiqod qiladi (Ibn Hazm, 1996:51,59,80).

Maruniylik (Maronizm). Ibn Hazm tilga olgan xristian firqalaridan biri maruniylikdir. Biroq Ibn Hazm bu firqa nomini tilga olish bilan kifoyalanib, uning Injil haqidagi qarashlari boshqa mazhablar bilan umumiy ekanligini ta’kidladi. Darhaqiqat, Abu Muhammad oriyoniylik, melkaniylik, nasturiylik, ya’qubiylik, maruniylik va bulyoniylik mazhablari Injil masalasida ixtilof qilmasligini aytib, to‘rtta tarixiy kitob ma’lum bo‘lgan to‘rt kishi tomonidan yozilganligini aytadi. Injil haqida boshqa mazhablar bilan umumiy tushunchani qabul qilgan maruniylik, Isoning ikkita tabiati va bir energiyasi borligini ta’kidlaydigan monotelitizm ta’limotini qabul qiluvchi sharqiy xristianlar guruhidir. Ildizlari V asrdagi xristologik muammolarga borib taqaladigan yana bir muhim firqadir. IV asrning ikkinchi yarmida yashab, V asr boshlarida vafot etgan yoki taxminan 423-yillarda Asi sohillarida vafot etgan deb taxmin qilingan rohib Aziz Marun (Maron - Antakya cherkovi bilan bog‘liq bo‘lgan G‘arbiy Suriyadagi daryo.) tomonidan asos solingan maruniylikdir. Maruniylar mohiyatan monotelitdir, chunki ular Isodagi insoniy va ilohiy iroda bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligini tan olishadi. VIII asrdan keyin ular maruniylar deb atala boshlandi.

XULOSA

Ibn Hazm Andalusiyning "al-Fisol fi-l-milal va-l-ahva va-n-nihal" asari Sharq qiyosiy dinshunosligiga oid ilk manbalardan biri hisoblanadi. Bu asar milal va nihal janrida yozilgan asarlar qatoriga kiradi. Asarda yakkaxudolik va ko‘pxudolik dinlari ta’limotlari, ulardagi firqalar, oqim va yo‘nalishlar haqida ma’lumotlar berilgan. Turli dinlardagi ta’limotlar o‘zaro qiyosiy tahlil qilinib, farqli va o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan. Muallif dinlar ta’limotlarini bayon qilishda tanqidiy tahlil va obyektiv munosabat bildirgan holda yondashgan. Asarda yahudiylik, xristianlik va islom dinlari ta’limotlari qiyoslanib, ushbu dinlar doirasida bo‘linish va firqalarning yuzaga kelish tarixi, har bir firqaning qarash va ta’limotlari, ular keltirgan dalillar batafsil bayon qilingan.

Ibn Hazmning "al-Fisol" asari o‘zidan oldin yozilgan asarlardan ajralib turadi. Unda keltirilgan Tavrot va Injil matnlarining ilmiy-tanqidiy tahlillari yahudiylik va xristianlik muqaddas manbalarini tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi.

Ibn Hazmning xristianlik yo‘nalish va oqimlari haqida bergan ma’lumotlarida ko‘plab masalalar yoritib berilgan. Ibn Hazm xristianlik firqalarining asoschilari, ularning tarixiy taraqqiyoti va qaysi hududlarda yoyilganligi haqida ma’lumot berish bilan birga, manbalarda uchramaydigan ba’zi firqalarning qarashlarini ham tushuntirgan.

Ibn Hazmning fikricha, xristianlikning Iso alayhissalom keltirgan diniy an'anadan uzoqlashishi yoki uni o'zgartirishiga yana bir sabab, xristian ruhoniylari o'tkazgan diniy yig'ilishlardir. Xristian ruhoniylari tomonidan o'tkazilgan bu yig'ilishlarning "Sobor" deb atalishini ta'kidlagan Ibn Hazm bu diniy yig'ilishlar haqida umumiy ma'lumot bergan. Ibn Hazm xristianlikdagi kengashlar diniy masalalarda hukmron hokimiyat ekanligini alohida ta'kidlagan. Biroq uning fikricha, aytilgan kengashlarda qabul qilingan qarorlar va hukmlar dinning mohiyatiga muvofiq qaror va hukmlar bo'lmagan.

Shahristoniy Ibn Hazmdan ko'ra uslub jihatidan kuchliroq bo'lsa-da, xristian yo'nalishlarini tadqiq qilishda tarixiy sanalarni hisobga olmagan. U Malkaniya va Nestorianlar haqida noto'g'ri ma'lumotlar bergan. Shahristoniy Nestorianlik yo'nalishining asoschisi Nasturiy milodiy 382-451 yillar oralig'ida yashagan bo'lsa-da, Shahristoniy uni xalifa Ma'mun (vaf. 218/833) davrida, ya'ni, IX asrda yashaganligini qayd etgan. Ibn Hazm esa, bu haqda ishonchli va aniq ma'lumotlar keltirgan.

ADABIYOTLAR

1. Abdulhalim U. Ibn Hazm al-Andalusi va juhuduhu fi-l-bahs-it-Tarixi val-Hadari. – Qohira: Dorul-fikril-Arabiy, 1409/1988. – 852 b.
2. Abdupattayev M. Imom Shahristoniy ilmiy merosi va olim asarlarini tadqiq etishdagi yondashuvlar. Islom ziyosi, 2022-yil, 2-son. –B. 38-41.
3. Abdupattayev M. J. Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniy ilmiy merosida dinlar tasnifining o'ziga xos jihatlari / tar. fan. fal. dokt. (PhD) ... diss. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2023. – 128 b.
4. Ahmad ibn Nosir Al-Hamad. Ibn Hazm va mavqifuhu min-al-Ilahiyyat. Ar-Riyod: Jami'at al-Ummu-l-Quro, 2008. –S. 86.
5. Alimova, M. (2020). The contribution of Imam ad-Darimi to the development of hadith science. The Light of Islam, 2020(2), 109-116.
6. Burgutkhonov S. Ibn Hazm Andalusi's book "Al-Fisol" is the first source in the comparative religious study of the East. Материалы международной научной конференции студентов и молодых учёных "Фараби әлемі", Алматы, Казахстан, 06-08 апреля 2022г. – Алматы: Қазақ университеті, 2022. –С. 704-707.
7. Burgutxonov S. Ibn Hazm Andalusiy "Al-Fisol fil-milal val-ahva vannihal" asarining qiyosiy dinshunoslik sohasidagi ahamiyati. The Light of Islam, 2022(4), 41-48.
8. Burgutxonov S. Ibn Hazm Andalusiy "al-Fisol" asarining dinlarni qiyosiy tadqiq etishdagi ahamiyati. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik – jamiyat barqarorligi garovi: Xalqaro konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent, 2021. –B. 233-236.
9. Burgutxonov S. Ibn Hazm Andalusiyning "al-Fisol fil-milal val-ahva van-nihal" asari dinlarni tadqiq etishda muhim manba. Dinshunoslikning dolzarb muammolari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. Toshkent, 2021. –B. 210-212.
10. Burgutxonov S. Ibn Hazm Andalusiyning "al-Fisol fil-milal val-ahva van-nihal" asari dinlarni tadqiq etishda muhim manba. «Шарқ алломаларининг ислом цивилизациясига қўшган ҳиссаси» мавзуидаги халқаро илмий-амалий конференция тўплами (19.05.2022). Buxoro, –B. 546-549.
11. Burgutxonov S. Umaviylar xalifaligining Andalusiyadagi diniy bag'rikenglik siyosati. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik – jamiyat barqarorligi garovi: Xalqaro konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent, 2022. –B. 252-256.
12. Ibn Hazm Andalusiy. Al-Usul val-furu'. Tahqiqchilar: Muhammad Atif al-Iroqiy, Suhayr Abu Vafiya va Ibrohim Hilol. – Qohira: Dorun-nahdo al-arabiya, 1978. – 560 s.
13. Ibn Hazm. Al-Fisol fil-milal val-ahva van-nihal. Bayrut:"Dorul-jiyl", 1996. 5 jild.
14. Laziza Alidjanova, & Ibrohim Nigmatullayev. (2020). Abu Raykhan Beruni And His Scientific-Spiritual Heritage. International Scientific and Current Research Conferences, 1(1), 80–82.
15. Muhammad Abu Zahro. Ibn Hazm, hayatuhu va asruhu, arouhu va fiqhuhu. – Qohira: Dorul-fikril-Arabiy, 1978. – 544 s.
16. Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniy. Al-Milal va-n-nihal. Ahmad Muhammad Fahmiy tahqiqi. – Bayrut: Dor al-ma'rifa, 1992. – 734 s.
17. Mukhamedov, N., & Alidjanova, L. (2020). The personality of Khoja Akhror and his factor in the social-spiritual Life. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal_ https://www.indianjournals. com/ijor. aspx.
18. Nematullo Mukhamedov, & Nurulloh Turambetov. (2021). THE ORIGINS OF RELIGIOUS TOLERANCE IN CENTRAL ASIA. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 10(12), 68–73.
19. Shamsiddin Zahabiy. Siyar a'lam an-nubalo. – Bayrut: Muassasa ar-risala, 1996. – J. 18. – 690 b.
20. Turambetov, Nurulloh. Religious Tolerance in the Upbringing of the Young Generation (in the Context of Uzbekistan). JournalNX, vol. 7, no. 12, 2021, pp. 298-301, doi:10.17605/OSF.IO/NDQ8R.
21. Xoji Xalifa, Mustafo ibn Abdulloh Kotib Jilbiy. Kashfuz-zunun a'n-asomil-kutub val-funun. Bayrut: "Dor ihyo' at-turos al-arabiy", 1024 s.
22. Али-заде А.А. Ибн Хазм аль-Андалуси // Исламский энциклопедический словарь. — М.: Ансар, 2007. – 400 с.
23. Селезнев Н. Н. Ибн Хазм о Боговоплощении и конфессиональном делении в христианстве. // Историко-философский ежегодник. 2011. М., 2012. — 472 с.

REFERENCES

1. Abdulhalim U. Ibn Hazm al-Andalusi and juhuduhu fi-l-bahs-it-Tarihi wal-Hadari. - Cairo: Darul-fikril-Arabi, 1409/1988. - 852.
2. Abdupattayev M. Imam Shahristani's scientific heritage and approaches to the research of the scientist's works. Islamic Intelligence, 2022, No. 2. -B. 38-41.
3. Abdupattayev M.J. Muhammad ibn Abdulkarim Shahristani's scientific heritage, specific aspects of the classification of religions / trans. science. div. dr. (PhD) ... diss. - Tashkent: International Islamic Academy of Uzbekistan, 2023. - 128 p.
4. Ahmad ibn Nasir Al-Hamad. Ibn Hazm and his mawqifuhu min-al-Ilahiyyat. Riyadh: Jami'at al-Ummu-l-Qura, 2008. -S. 86.
5. Alimova, M. (2020). The contribution of Imam ad-Darimi to the development of hadith science. The Light of Islam, 2020(2), 109-116.
6. Ali-zade A.A. Ibn Hazm al-Andalusi // Islamic encyclopedic dictionary. - M.: Ansar, 2007. - 400 c.
7. Burgutkhanov S. Ibn Hazm Andalusi's work "al-Fisol fil-milal wal-ahva van-nihal" is an important source in the study of religions. Collection of international scientific and practical conference on "Contribution of Eastern scholars to Islamic civilization" (19.05.2022). Bukhara, -B. 546-549.
8. Burgutkhanov S. Ibn Hazm Andalusi''s work "al-Fisol fil-milal wal-ahva van-nihal" is an important source in the study of religions. Actual problems of religious studies: a collection of materials of the republican scientific-practical conference. Tashkent, 2021. -B. 210-212.
9. Burgutkhanov S. Importance of Ibn Hazm Andalusi's work "Al-Fisol fil-milal wal-ahva vannihal" in the field of comparative theology. The Light of Islam, 2022(4), 41-48.
10. Burgutkhanov S. Importance of Ibn Hazm Andalusi's work "al-Fisol" in the comparative study of religions. International harmony and religious tolerance - a guarantee of social stability: Proceedings of the international conference. - Tashkent, 2021. -B. 233-236.
11. Burgutkhanov S. The policy of religious tolerance of the Umayyad caliphate in Andalusia. International harmony and religious tolerance - a guarantee of social stability: Proceedings of the international conference. - Tashkent, 2022. -B. 252-256.
12. Burgutkhonov S. Ibn Hazm Andalusi's book "Al-Fisol" is the first source in the comparative religious study of the East. Materialy mejdunarodnoy nauchonetssii studentsov i molodyx uchyonyx "Farabi world", Almaty, Kazakhstan, April 06-08, 2022. - Almaty: Kazakh University, 2022. -C. 704-707.
13. Haji Khalifa, Mustafa bin Abdullah Secretary Jilbi. Kashfuz-zunun an-asomil-kutub wal-funun. Beirut: "Dar ihyo' at-turos al-arabi", 1024 p.
14. Ibn Hazm Andalusi. Al-Usul wal-furu'. Investigators: Muhammad Atif al-Iraqi, Suhair Abu Wafia and Ibrahim Hilal. - Cairo: Darun-nahdo al-arabiya, 1978. - 560 p.
15. Ibn Hazm. Al-Fisal fil-milal wal-ahwa wan-nihal. Beirut: "Darul-jiyl", 1996. 5 volumes.
16. Laziza Alidjanova, & Ibrohim Nigmatullayev. (2020). Abu Raykhan Beruni And His Scientific-Spiritual Heritage. International Scientific and Current Research Conferences, 1(1), 80–82.
17. Muhammad Abu Zahra. Ibn Hazm, Hayatuhu and Asruhu, Arouhu and Fiqhuhu. - Cairo: Darul-fikril-Arabiy, 1978. - 544 p.
18. Muhammad ibn Abdulkarim Shahristani. Al-Milal wa-n-nihal. Research by Ahmed Muhammad Fahmi. - Beirut: Dor al-ma'rifa, 1992. - 734 p.
19. Mukhamedov, N., & Alidjanova, L. (2020). The personality of Khoja Akhror and his factor in the social-spiritual Life. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal_ https://www.indianjournals. com/ijor. aspx.
20. Nematullo Mukhamedov, & Nurulloh Turambetov. (2021). THE ORIGINS OF RELIGIOUS TOLERANCE IN CENTRAL ASIA. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 10(12), 68–73.
21. Seleznev N. N. Ibn Hazm on God's interpretation and confessional division in Christianity. // Historical and philosophical ejegodnik. 2011. M., 2012. — 472 p.
22. Shamsiddin Zahabi. Siyar alam an-nubala. - Beirut: Institution ar-risala, 1996. - J. 18. - 690 p.
23. Turambetov, Nurulloh. Religious Tolerance in the Upbringing of the Young Generation (in the Context of Uzbekistan). JournalNX, vol. 7, no. 12, 2021, pp. 298-301, doi:10.17605/OSF.IO/NDQ8R.